
Toshloq tumanida sportning futbol va mini futbol turi bo'yicha Davlat xavfsizligi xizmati kubogi musobaqalariga start berildi.

Bugun tumandagi 2-umumta'lim maktabining zamonaviy sport maydonida 16-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida sportning futbol va mini futbol turi bo'yicha Davlat xavfsizligi xizmati kubogi musobaqalariga start berildi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, DXX Marg'ilon shahar bo'limi boshlig'i Oybek Farmonov, sektor rahbarlari hamda sportchi yoshlar ishtirok etdilar.

Dastlab, tuman hokimi so'zga chiqib, musobaqa ishtirokchilarga omad tiladi. Yoshlar o'rtasida futbolni ommalashtirish, shuningdek, ular orasidan iqtidorlilarni aniqlash hamda qo'llab-quvatlash maqsadida o'tkazilayotgan futbol va mini-futbol bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati kubogi o'yinlarida yoshlarning faol qatnashishlarini, musobaqa yakunida g'olib jamoalar munosib taqdirlanishini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, DXX kubogini mini futbol bo'yicha o'tgan yilgi g'olib jamoalari o'rtasida o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazildi.

2024-04-09 12:14:50